

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

„OLTUN YORUG“ VA TURKIY XALQLAR OG’ZAKI IJODIDA AJDARHO MIFOLOGIK OBRAZIDAGI UMUMIYLIKLAR

*Nasimxon RAHMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Hamza ALLAMBERGENOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290830>

XXI asr folklorshunosligining va adabiyotshunosligining peshqadam vakillari haqida so‘z ketganda, beixtiyor Hodi Zarifov va To‘ra Mirzayev, bu ustozlardan keyin Jabbor Eshonqulov, Shomirza Turdimovlar ko‘z oldimizga keladi. Abdujabborning salohiyati yuqori, shu boisdan ham adabiyot va folklori baravar ko‘radi, bir xilda anglaydi. Olimning „Mif va epik tafakkur“ kitobini o‘qishga kirishar ekanmiz, quyidagi qarashlari rus olimi A.F.Losevni yodimizga soladi: „Mifologiyaning o‘ziga xos falsafa ekanini tushunmasdan turib, undagi ramzlarning ma’no va mohiyatini ochib bermasdan turib biz na adabiyot, na san’at eshigiga kira olamiz. Biz bugun klassik adabiyotimizni hamda dunyo adabiyotini tushunishimiz uchun, eng avvalo, ana shu qatlamni o‘rganishimiz zarur bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodini bilmasdan turib, adabiyot haqidagi bilimimizni mukammal, deya olmaymiz. Yevropa, umuman, G‘arbdagi ijodiy inqiloblar, yuksak san’at namunasi hisoblangan badiiy asarlarning asosida ana shu qadim falsafa turadiki, U.Folkner (William Cuthbert Faulkner), X.L.Borxes (Jorge Luis Borges), A.Kamyu (Albert Camus), J.P.Sartr (Jean-Paul Charles Aymard Sartre), J.Joys (James Augustine Aloysius Joyce) kabi XX asr adabiyotining bayroqdorlari bo‘lgan adiblarning ijodi buning isbotidir“ [Эшонкул Ж. 5: 16]. Zotan o‘zbek mifologiyasi qatorida jahon mifologiyasini teran va keng qamrovli anglagan holda yaratgan yuqoridagi kitobi J.Eshonqulning yuksak salohiyatini, jahon adabiyotiga chuqur kirganini yana bir karra tasdiqlaydi.

Biz uzoq yillardan buyon qadim yodgorliklar bilan shug‘ullanib kelganimiz uchun mifologiyaga ham yuz burishimiz tabiiy. Xususan, keyingi yillarda katta hajmdagi „Oltun yorug“ asarini hozirgi o‘zbek tiliga tabdil qilib, bu asarning ichiga va undagi g‘ayritabiiy timsollarga kirib borayotganimiz bois bu yozma yodgorlikdagi dunyo xalqlari mifologiyasida keng tarqalgan qadimiy, ayrim mifologik obrazlar xususida so‘z yuritish imkoni tug‘ildi.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ajdaho timsolining „Oltun yorug“da: *burxanlarqa öggülüğ bodisatwlarqa ayaghuluq t(ä)ngrilärkä luularqa tapin-ghuluq arxant pratiykabutlarqa tutghuluq t(ä)ngrilär ordusün y(o)ruttaçi yalanguq oghlaninga inçkü mängi birtäçi üç yawlagh* (V. 28a, 13-15) – bo‘disatvlar uchun izzatli, tangrilarga, ajdaholarga sajda qiladigan, arxant, pratiykabutlarga ergashadigan tangrilar qarorgohini yoritadi. Yana mazkur asarda (V. 28b, 13-15) ajdaho timsoli boshqa qator mifologik mavjudotlar hamda hukumdorlar-u insonlar bilan bir qatorga qo‘yiladi. „Vipasank“ nomli arman eposida ajdarho (Ajdaxak) timsolining „Oltun yorug“dagi va turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi singari mifologik mazmuni saqlanganini ko‘ramiz. Mazkur arman eposida ajdarho marlar (ya‘ni ilon bo‘lib, Midiya xalqi timsolini o‘zida ifodalaydi)ning shohi vazifasida talqin qilingan bo‘lib, arman shohi Tigiranning dushmani sifatida namoyon bo‘ladi [Мифы народов мира, 1: 50]. Mazkur eposda ajdahoning salbiy obraz sifatida talqin qilinishi tarixiy voqealar bilan bog‘liqdir. Arman shohi Tigiran ko‘p xalqlarni mag‘lub qilgan, uning farzandlari, xususan, qizi bilan Kichik Midiya shohi oila qurgan.¹ Skif-hayvonot usulining, marlar va Midiya xalqining eposda teng qo‘yilishi holati e‘tiborni tortadi. Bu usulning eposda namoyon bo‘lishi mifologik personajning „Oltun yorug“da va arman eposida semantik va funksional tomondan bir xil tarzda namoyon bo‘lishining namunasi. Bunday holatda biz ajdaho obrazida xuddi turkiy xalqlar ertak va dostonlaridagi personifikatsiya hodisasiga duch kelamiz. Ajdaho insoniyat olamidagi xonlar-u podshohlar kabi – to‘g‘ri qonun-qoida, to‘g‘ri no‘m bo‘yicha olamga foyda-manfaat keltirsalar edi, kulfat-u falokatlarni biz (bartaraf qilib) tarqatgan bo‘lardik, deya maxaranchlar Tangrilar tangrisi burxonga o‘z maqsadini so‘zlab beradi.

Ol ödün manası anawatapti bashlap *qamagh luu qanlari y(ä)mä olurmish orunlarintin örü turup ayalarin qawshurup aghir ayamaqin t(ä)ngri t(ä)ngrisi burxanqa inçä tip ötüntilär* (11-15) – Bu zamon Manasi, Anavatapti boshchiligidagi barcha ajdaho xonlari yana o‘tirgan o‘rinlaridan turib, qo‘llarini qovushtirib, katta hurmat bilan Tangri(lar) tangrisi burxonga shunday deb o‘tindilar (VII.7a, 11-15): biz – hamma ajdaholar dunyosida hayotimizga singib ketgan jabr-u jafo oqibati (bo‘lgan) qashshoq ko‘nglimizni ovutib, marhamat qilgay edi“, deb keyin darnini o‘qidilar (VII.7b, 3-6)

Biz qadimgi yozma manbalardan folklorga mansub timsollarni va bu timsollar ostidagi mifologik mazmunni tahlil qilar ekanmiz, yana Jabbor Eshonqulning „Mif va

¹Аждахак\ Мифы народов мира, том 1. М., Советская энциклопедия, 1991, С. 50

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

badiiy tafakkur“ kitobiga murojaat etamiz. Olim o‘z qarashlarini dalillash uchun faqat qadimgi shumer va akkadlar mifologiyasi bilan cheklanib qolmaydi, balki qadimgi turkiy yodgorliklarga ham jahon mifologiyasining muhim va ishonchli manbalari sifatida tayanadi. Turkiy xalqlar eposlari: „Manas“, „Alpomish“dagi 7 raqami bilan bog‘liq ilohiy tug‘ilish motiviga to‘xtalar ekan, Kultigin bitigtoshida bu raqam ostidagi mifologik mazmun dostonlardagi boshqa yetakchi motivlar bilan qiyosiy o‘rganilgandagina, eposning mifologik asoslari va badiiyati yanada chuqurroq ochilishini ta’kidlaydi [Эшонкул Ж. 5: 69]. Xuddi mif yoxud ertakdagi kabi eposlardagi va Kultigin bitigtoshidagi qahramonlar tez va g‘ayritabiiy ulg‘ayadi, yoshligidayoq o‘z qahramonliklarini namoyish etadi, qahramonning ana shu xususiyatlari bitigtoshlardagi real qahramonlarda namoyon bo‘lgan ekan, ism qo‘yish lavhasining ildizlarini biz qadimgi turkiy qavmlarning udumlaridan qidirishimiz kerakmikan, degan mulohaza paydo bo‘ladi. Bunday fikrga kelishimizga J.Eshonqulning yuqoridagi kitobida keltirgan dalillari, tahlillari asosdir. O‘ylaymizki, o‘zbek mifologiyasiga oid fundamental tadqiqotni yaratishda olim do‘stimizning ushbu kitobi asos bo‘lishi shubhasiz.

Turkiy xalqlar, jumladan, ajdar personaji ishtirok etgan o‘zbek sehrli xalq ertaklarida ajdarning suv bilan bog‘liq mifologemasi, shuningdek, ajdarga qarshi kurashuvchi qahramon, ajdar va Semurg‘, ajdar va Olam daraxti mifologemalari Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari xalq og‘zaki ijodida keng yoyilgan [Стеблева И.В. 2: 25]. „Oltun yorug“dan olingan yuqoridagi parchada ma’lum darajada transformatsiyalashgan holatda saqlangan. Bu mifologema, chamasi, „Oltun yorug“da ajdar mifologik mavjudot sifatida sehrli ertaklardagi kabi yovuz kuchlarning timsoli sifatida namoyon bo‘lmaydi. Asardagi ajdar timsoli poluantromorfik xususiyatda ega, insoniyatga ko‘p yaxshiliklar qiladi va insonlar singari istiqomat qiladi, xuddi insoniyat jamiyatidagi singari ajdaholarning xonlari bor. Ajdaho xonlari burxonlarga, ya’ni Buddaga sajda qiladilar, qo‘l qovushtirib unga ta’zim qiladilar. „Oltun yorug“dagi ajdaho xuddi „Ajdarqush“ nomli o‘zbek xalq ertagidagi obrazni o‘zida ifoda etganday tasavvur uyg‘otadi. Mazkur ertakdagi ajdar obrazi o‘zining semantik va funksional xususiyatlari bilan shomonlikdagi ajdar obraziga aynan uyg‘un keladi: „*G‘or yaqinidagi bir daraxtda keksayib qolgan ajdar qush yashar ekan. Bir kuni ajdar qush qizni ko‘rib oshiq bo‘libdi*“. Yuqorida „Oltun yorug“dan keltirilgan uchta parchada ajdaho timsoli makon va zamonda o‘zlarining insoniy qiyofalarini namoyon qiladilar. Bular – ajdaholarning obrazi, ajdaho xonlari va ajdaholar olamidir. Arxaik qatlamini saqlagan ayrim turkiy xalqlar

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

eposlarida bu jarayoni saqlangan. Masalan, „O‘rol botir“ boshqird eposida buning namunasini ko‘ramiz:

Yigit aytsa tilagin,

Zo‘r ishiga hadyam,

Deydi senga otam.

Oldindan aytib qo‘yayin:

Ajdaho to‘nin sol, – deysan,

Qush to‘ningni kiy, deysan [Ўрол ботир. 6: 60].

„Oltun yorug‘“dan keltirilgan misollardagi ajdaho va ajdaho xonlari timsollari (*luu va luu qanlari*) va „O‘rol botir“ eposidagi *to‘ndan* shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, garchi yozma matnlarga o‘tgan bo‘lsa ham, bu obraz tom ma‘nodagi mifologik mazmunini saqlagan, hatto aytish mumkinki, „Oltun yorug‘“da hamda boshqird eposida bu timsolning vazifalari tarmoqlashgan. Ajdaholar xuddi insonlar singari Tangrilar qanday vazifa bajarsa, ular ham insoniyat va ilohlar singari vazifaga ega bo‘lib, personifikatsiyalashgan. „Oltun yorug‘“ning ayrim sahifalarida esa ajdahoning ismi ham bor. Ismlardan kelib chiqadigan mazmun va mohiyat yana „Ajdarqush“ ertagidagi singari vazifasini o‘zida saqlaydi. Masalan, Anavadandi ajdaho xonining (VI. 4b, 12) – Mifologik tizimdagi bunday xususiyatlar qadimgi sanskrit adabiyotidagi vedalarning ta‘siri bo‘lib, Ajdahoning o‘ziga xos vazifasi haqida so‘z ketganda ana shu personifikatsiyalashuv hodisasini nazarda tutamiz. Shu bilan birga, ajdaho xonlari Tangrilar tangrisi burxonga tobe bo‘lgan jonzotlar sifatida talqin qilingan. Keltirilgan parchalardagi ajdar aslida ibtidoiy fikrlash qonuniyatiga ko‘ra, urug‘ning rahnamosi obrazidir, ibtidoiy inson o‘z urug‘boshisini butun urug‘ jamoasi bilan va insonlar guruhi bilan baravar deb biladi. Bilib bo‘ladigan olam bilan uni biladigan inson yaxlitdir. Insoniy xususiyatlar tashqi olam deb tasavvur qilinadi, Bu o‘rinda inson va tabiiy olam yaxlitdir degan qarashlar haq ekanini anglaymiz. Tashqi olam esa o‘z navbatida insoniyat qiyofasida tasavvur qilinadi [Ўрол ботир. 6: 60]. Ajdarho xoni va unga Anavadandi ismi berilgani aynan yuqoridagi fikrlarga mos keladi.

Ajdaho obrazi bilan bog‘liq bunday hodisa XX asrning o‘rtalarigacha turk xalq ertaklarida davom etib kelgan. Ustozimiz I.V.Stebleva „Ocherki turetskoy mifologii“ (– M.: Vostochnaya literatura, 2002) nomli kitobida ajdaho (yoki ilon) universal mifologema bo‘lib, arxaik mifologiyada ilk bora kurtak otganini tahlil qilar ekan, ajdaho (yoki ilon) suv stixiyasi bilan aloqador mifologema ekanini ta‘kidlaydi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Kuzatuvlarga ko‘ra, ajdaho yoki ilon mifologik obraz sifatida sehrli ertaklarda uchraydi. Shu nuqtayi nazardan „Oltun yorug“dagi ajdarho (*luu*) obrazida ham sehrli ertaklar xususiyati bor. Ilohlar bilan ajdaholarning bir qatorga qo‘yilgani, ilohlar bajargan ishlarni ajdaholar ham bajargani shundan dalolat beradi: *tangrilarning, ajdaholarning xotin kishisi, erkak ruhlarning o‘rdasi, saroylari esa quyidagicha: Azrua tangrining, Xo‘rmuzta tangrining, Sarasvati tangri qizining, Sirikini baxt tangrisining, Vonundari zamin malikasining, Sanchanachavi yo‘lboshchining, jamiki yigirma sakkiz guruh tangrilarning, Mag‘asvari tangrining, Vchirapani botir Manibadari yo‘lboshchining (va) oqsoqolning besh yuz jamoatning, yana Anavadandi ajdaho xonining, buyuk dengiz, daryo hukmdorining, bularning qancha o‘rinlari, o‘rdalari bo‘lsa* (VI. 12a;1-14).

Bu holatda ajdaholarning turli makonda va olamdagi obrazini metafora deb aytishimiz mumkin. Metaforik obrazlar mifologik va poetik obrazlarni o‘zida mujassamlantiradi. Poetik metafora ham mifologik obrazdan kelib chiqqanligi shubhasiz, shuning uchun mifologik obrazlar variantlarini ham metafora deb ayta olamiz.

Ajdar obrazi Kichik va O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Shimoliy Kavkaz, Volga bo‘ylarida, G‘arbiy Sibir o‘lkalari mifologiyasi va xalq og‘zaki ijodidan keng o‘rin olgan. Bu mifologik obraz kelib chiqishiga ko‘ra yovuz iblis ma’nosini bildiradi. Bu jihatdan „Avesto“dagi Aji Daxakning ma’nosi va funksiyasiga to‘g‘ri keladi.

Arxaik miflarning bu turi ibtidoiy hayotga yorib kirgan. Bu obraz shakl jihatidan qahramonlik miflariga aloqadordir. Ajdahoning tangrilar, ya’ni ilohlar bilan bir qatorga qo‘yilgani arxaik miflarning bir namunasi. Ayni paytda „Oltun yorug“dagi ajdarning jinsiy xususiyatga egaligi, ya’ni ajdarning xotin kishi va erkak kishi ruhlari ifodasiga ega bo‘lgani ham, bu mifologik obrazning qadimdan ayol va erkak insonlarning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlarni keltirib chiqarishiga ishora qiladi. Keyingi davrlarda paydo bo‘lgan ertaklar bilan „Oltun yorug“dagi ertaklarning o‘zaro qiyosi fikrimizga dalildir. Jonli va jonsiz olamning o‘xshashligi bu mifologik obrazda namoyondir. Jonzot, ya’ni ajdaho buyumdir, buyum esa jonzotdir [Фрейденберг О.М. 4: 63].

Ushbu mifologik obrazdan yana shuni anglash mumkinki, ibtidoiy tafakkur buyumni tabiiy kuch, hayvon, va qahramon qiladi. Buyum, ya’ni ajdar gapiradi, yashaydi, harakat qiladi, xullas, totemning vazifalarini o‘z zimmasiga oladi.

„Oltun yorug“dagi ajdar timsolining yana bir xususiyati shuki, bu timsol mifologik xususiyatiga ko‘ra, boshqa jonzotlar bilan qarindoshlik munosabatlarini

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o‘rnatganiga ishora qiladi. Bu yozma yodgorlikdagi ajdar timsoli orqali ifodalangan mifologik mazmun magiyaga asoslangan degan fikrga olib keladi. Zotan, magiyaning tarixdagi, xususan, madaniyat tarixidagi o‘rnini nazarda tutishimiz kerak. Magiya o‘z tamoyiliga ko‘ra, sivilizatsiyaning eng quyi bosqichiga mansub [Тайлор Э.Б. 3: 93]. „Oltin yorug“ garchi olam aqliy rivojlanishining yuqori bosqichiga tegishli bo‘lsa ham, mazkur yozma manbadagi ajdar (*luu*) sivilizatsiyaning quyi bosqichidan rivojlangan bosqichiga o‘tib kelgan reliktdir.

Alqu luular arasinta yäklär quwraqinta y(ä)mä ançulayu oq qamaghda bashting bolmishigh (VII.17a,23-27) – Jamiki ajdaholar orasida, shaytonlar jamoatida ham, shu tariqa hammadan ustun bo‘lib.

Umuman, „Oltun yorug“ va turkiy xalqlar ertaklarida ajdarho mifologik obrazi bir qator mushtarak belgilarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Mazkur obraz badiiy tafakkur taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘z funksiyalarini kengaytirib bordi, yer osti, o‘rta va yuqori olam modelining tarkibiy qismi sifatida ajdodlarimizning arxaik-mifologik qarashlarini gavdalandirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аждахак // Мифы народов мира. Том 1. – М.: Советская энциклопедия, 1991.
2. Стеблева И.В. Очерки турецкой мифологии. – Москва: Восточная литература, РАН, 2002.
3. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – Москва: Издательство политической литературы, 1989. – Б. 93.
4. Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. – Москва: Главная редакция Восточной литературы, 1978.
5. Эшонкул Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент, 2019.
6. Ўрол ботир. Бошқирд халқ эпоси. Бошқирдчадан Ш.Ўмирзақов таржимаси. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2024.